ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

***Dastlabki ma’lumot***
***2024- yil yanvar-fevral***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi***
***Tel.: 74 228-30-57***

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



**Statistik ma’lumotlar** jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma’lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to‘g‘ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko‘rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’ati, % da




2024- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 889 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 104 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 785 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig‘ilgan ma’lumotlar, chakana savdo ko‘rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 251,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 110,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 246,7 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 110,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 004,9 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 110,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 466,4 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 124,3 %) tashkil etdi.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2023- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, *foizda* |
|---|---|---|
| **Andijon Viloyati** | **3 251,6** | **110,0** |
| Andijon sh. | 936,2 | 111,0 |
| Xonobod sh. | 33,0 | 107,8 |
| *tumanlar* | | |
| Oltinko‘l | 137,0 | 115,0 |
| Andijon | 206,6 | 108,2 |
| Baliqchi | 208,2 | 106,4 |
| Bo‘ston | 46,9 | 110,8 |
| Buloqboshi | 100,9 | 111,8 |
| Jalaquduq | 108,3 | 113,4 |
| Izboskan | 115,0 | 110,2 |
| Ulug‘nor | 43,2 | 112,1 |
| Qo‘rg‘ontepa | 219,4 | 114,1 |
| Asaka | 276,4 | 110,2 |
| Marhamat | 149,0 | 110,3 |
| Shahrixon | 401,7 | 104,9 |
| Paxtaobod | 139,0 | 108,5 |
| Xo‘jaobod | 130,6 | 114,2 |

2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (11,0 %), Oltinko‘l (15,0 %), Buloqboshi (11,8 %), Jalaquduq (13,4 %), Ulug‘nor (12,1 %), Qo‘rg‘ontepa (14,1 %), va Xo‘jaobod (14,2 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o‘sish sur’ati dinamikasi *(yanvar-fevral)*




So‘nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘sish sur’ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillarda chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, oylar kesimida *(foizda)*




2024- yilning yanvar-fevral oylarida o‘sish sur’ati **110,0** % ni tashkil qildi.

# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

*Ulushi, foizda*




Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 28,8 % bilan 936,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 1,0 % bilan 33,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*





## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar *(foizda)*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 3 004,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,4 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar *(foizda)*

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,4 % ga o‘sdi va 246,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,6 % ulushiga to‘g‘ri keldi.





## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *(foizda)*




Tahliliy natijalarga ko‘ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Qo‘rg‘ontepa (99,2 %), Shahrixon (98,7 %), Ulug‘nor (98,7 %), Buloqboshi (98,1 %), va Marhamat (97,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 7,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (18,7 %), Andijon (6,8 %), Jalaquduq (6,1 %) tumanlarida kuzatildi.






## **Hududlar kesimida ma’lumot,** *ming so‘mda*



| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 1 973,4 |
| Xonobod sh. | 726,0 |
| Oltinko‘l | 719,0 |
| Andijon | 729,9 |
| Baliqchi | 974,8 |
| Bo‘ston | 609,7 |
| Buloqboshi | 665,9 |
| Jalaquduq | 549,9 |
| Izboskan | 455,0 |
| Ulug‘nor | 681,6 |
| Qo‘rg‘ontepa | 961,6 |
| Asaka | 787,1 |
| Marhamat | 807,9 |
| Shahrixon | 1 252,2 |
| Paxtaobod | 679,1 |
| Xo‘jaobod | 1 100,9 |

2024- yilning yanvar-fevral oyilarida holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 968,2 ming. so‘m (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (107,7 %) ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (1 973,4 ming so‘m), Shahrixon ( 1 252,2 ming so‘m) va Xo‘jaobod ( 1 100,9 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo koʻrsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xoʻjaligida oʻz kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi oʻsish surʼati** (2024- yil yanvar-fevral), *foizda*



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xoʻjaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo oʻrinlari, turgʻun savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

| | **Jami, mlrd. soʻm** | **2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda** |
|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **466,4** | **124,3** |
| Andijon sh. | 79,9 | 92,8 |
| Xonobod sh. | 1,0 | 146,7 |
| *tumanlar :* | | |
| Oltinkoʻl | 9,6 | 185,3 |
| Andijon | 10,3 | 81,5 |
| Baliqchi | 24,1 | 113,4 |
| Boʻston | 2,9 | 115,5 |
| Buloqboshi | 15,4 | 145,5 |
| Jalaquduq | 13,2 | 2,0 b. |
| Izboskan | 8,4 | 2,6 b. |
| Ulugʻnor | 15,4 | 113,7 |
| Qoʻrgʻontepa | 34,3 | 4,0 b. |
| Asaka | 62,7 | 162,2 |
| Marhamat | 34,4 | 143,2 |
| Shahrixon | 99,9 | 115,1 |
| Paxtaobod | 37,4 | 100,5 |
| Xoʻjaobod | 17,6 | 100,1 |

** – xoʻjalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qoʻshmagan holatda;*

*– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xoʻjaligida oʻz kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.*

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’atlari

(2024- yil yanvar-fevral)




## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, *mlrd. so‘m*

(2024- yil yanvar-fevral)




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 466,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 124,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 162,4 mlrd. so‘mni (120,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 304,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi (126,6 %).

2024- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi 162,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (66,4 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

**Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**

**66,4 *mlrd. so‘m***



40,9 %

**Non va non mahsulotlari**

**38,5 mlrd. so‘m**



23,7 %

**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, guruch va boshqalar)

**17,8 mlrd. so‘m**



10,9 %

**Tovuq go‘shti**

**5,2 mlrd. so‘m**



3,2 %

**Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari** (yongoq, bodom, pista va boshqalar)

**6,5 mlrd. so‘m**



4,4 %

**Tuxum**

**5,2 mlrd. so‘m**



3,2 %

**Ziravorlar**

**6,8 mlrd. so‘m**



4,2 %

**Sut va sut mahsulotlari**

**4,7 mlrd. so‘m**



2,9 %

**Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak**

**0,8 mlrd. so‘m**



0,5 %

**Tuzlamalar**

**4,9 mlrd. so‘m**



3,0 %

**Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari**

**1,0 mlrd. so‘m**



0,6 %

**Nooziq-ovqat tovarlar**

**4,5 mlrd. so‘m**

2,8 %

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi 304,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 251,9 mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar – 47,9 mlrd. so‘mni, otlar – 2,7 mlrd. so‘mni, quyon va parrandalar – 1,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

**2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar**

*143,6 mlrd. so‘m*



47,2 %

**1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar**

*67,5 mlrd. so‘m*



22,2 %

**1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar**

*40,8 mlrd. so‘m*



13,4 %

**Qo‘ylar**

*46,9 mlrd. so‘m*



15,4 %

**Otlar**

*2,7 mlrd. so‘m*



0,9 %

**Echkilar**

*1,0 mlrd. so‘m*



0,3 %

**Kurka, o‘rdak, g‘oz**

*1,1 mlrd. so‘m*



0,4 %

**Tovuqlar**

*0,3 mlrd. so‘m*



0,1 %

**Quyonlar**

*0,1 mlrd. so‘m*



0,03 %

**Qushlar**

*0,04 mlrd. so‘m*



0,01%

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 176 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 175 tani tashkil qildi.

| | **Jami mlrd. so‘m** | **2023- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan,** *foizda* |
|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **70,2** | **108,9** |
| Andijon sh. | 30,0 | 104,4 |
| Xonobod sh. | 0,9 | 112,3 |
| *tumanlar :* | | |
| Oltinko‘l | 3,6 | 111,8 |
| Andijon | 5,7 | 112,5 |
| Baliqchi | 1,4 | 112,0 |
| Bo‘ston | 1,7 | 106,1 |
| Buloqboshi | 0,6 | 113,0 |
| Jalaquduq | 1,5 | 112,8 |
| Izboskan | 2,1 | 113,4 |
| Ulug‘nor | 0,8 | 112,3 |
| Qo‘rg‘ontepa | 2,6 | 113,5 |
| Asaka | 3,3 | 113,3 |
| Marhamat | 2,3 | 113,2 |
| Shahrixon | 9,5 | 113,0 |
| Paxtaobod | 2,5 | 113,3 |
| Xo‘jaobod | 1,8 | 112,3 |

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 70,2 mlrd. so‘mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

| | **Hajmi,** mlrd. so'm | **Ulushi,** *foizda* |
|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **549,7** | **100,0** |
| Andijon sh. | 348,9 | 63,5 |
| Xonobod sh. | 0,06 | 0,01 |
| *tumanlar :* | | |
| Oltinko'l | 26,0 | 4,7 |
| Andijon | 25,0 | 4,5 |
| Baliqchi | 0,7 | 0,1 |
| Bo'ston | 0,08 | 0,01 |
| Buloqboshi | 0,1 | 0,03 |
| Jalaquduq | 0,7 | 0,1 |
| Izboskan | 0,3 | 0,1 |
| Ulug'nor | 0,05 | 0,01 |
| Qo'rg'ontepa | 8,0 | 1,5 |
| Asaka | 70,4 | 12,8 |
| Marhamat | 2,6 | 0,5 |
| Shahrixon | 2,5 | 0,5 |
| Paxtaobod | 0,5 | 0,1 |
| Xo'jaobod | 63,6 | 11,6 |

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (348,9 mlrd. so'm), Asaka (70,4 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (63,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. *(mlrd. so‘m)*




2024- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari)* 549,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 235,8 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati – 12,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 313,9 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati – 113,2 %) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o‘sish sur’ati, *foizda*



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,**
*mlrd. so‘mda*




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 973,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ga o‘sdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

4,9 % — 48,0 mlrd. so‘m — Yirik korxonalar

95,1 % — 925,5 mlrd. so‘m — Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 925,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 116,6 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,1 % ni tashkil qildi.

# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR’ATI

2024- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 798 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 786 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega eng yirik korxonalar Andijon (2,4 m.), Xo‘jaobod (4,0 m.) va Ulug‘nor (3,0 m.), tumanlarida kuzatildi.

| | Jami mlrd. so‘m | 2023- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, *foizda* |
|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **973,5** | **113,2** |
| Andijon sh. | 364,2 | 111,5 |
| Xonobod sh. | 4,8 | 116,9 |
| *tumanlar :* | | |
| Oltinko‘l | 48,7 | 117,9 |
| Andijon | 74,4 | 113,5 |
| Baliqchi | 65,3 | 111,1 |
| Bo‘ston | 24,4 | 111,4 |
| Buloqboshi | 21,2 | 111,6 |
| Jalaquduq | 10,0 | 112,1 |
| Izboskan | 18,8 | 113,3 |
| Ulug‘nor | 10,5 | 112,1 |
| Qo‘rg‘ontepa | 23,7 | 115,0 |
| Asaka | 30,6 | 111,9 |
| Marhamat | 28,6 | 166,3 |
| Shahrixon | 218,2 | 111,5 |
| Paxtaobod | 17,1 | 111,6 |
| Xo‘jaobod | 13,0 | 111,8 |